

**70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA "SAN'AT" MAVZUSIGA MUROJAAT, ADABIY
TAFAKKURDAGI YANGILANISHLAR****Maxmudov Sardor Esonali o'g'li**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

O'zbek va rus filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola XX asrning 70-80-yillar o'zbek she'riyatida "san'at" mavzusining ommalashuvi va adabiy tafakkurdagi yangilanishlarni tahlil qiladi. Muallif she'riyatda san'at mavzusining keng qamrab olinishiga sabab bo'lgan omillarni izchil yoritib beradi.

Maqolada ta'kidlanishicha, XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida sodir bo'lgan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, Chor Rossiyasi ta'sirida yangi hayot tarzining kirib kelishi insonlar ong va tafakkurida chuqur evrilishlarga zamin yaratdi. Bu jarayon lirikaning ijtimoiylashuvini tezlashtirdi.

Muallif 60-80-yillarni o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich sifatida baholab, rassomchilik, teatr, kino, musiqa va boshqa sohalaridagi yuksalish she'riyatga bevosita ta'sir ko'rsatganini asoslaydi. San'at mavzusining she'riyatda ommalashuvining ikki asosiy sababi ko'rsatiladi: birinchisi – san'at sohalarining o'sha davrda o'zining taraqqiyot cho'qqisiga yetishi; ikkinchisi – she'riyatning boshqa san'at turlari bilan sintezlashishi.

Maqolada Xurshid Davronning "San'at" nomli she'ri asosida rangtasvir va she'riyat sintezining yorqin namunasi tahlil qilinadi. Ushbu she'r orqali muallif ijodkorning shaxsiy badiiy universalligini, ijtimoiy dardni san'at vositasida nozik ifodalash mahoratini ko'rsatib beradi.

KALIT SO'ZLAR: she'riyat, san'at mavzusi, adabiy tafakkur, sintez, rangtasvir, lirika, ijtimoiylashuv, rassomchilik, teatr, kino, musiqa, badiiy obraz, lirik subyekt, ijodkor, yangilanish, XX asr, 70-80-yillar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется распространение темы «искусства» в узбекской поэзии 1970-1980-х годов и обновление литературного мышления в этот период. Автор последовательно рассматривает факторы, способствовавшие широкому охвату темы искусства в поэзии.

Как подчёркивается в статье, политические и социальные изменения, произошедшие в туркестанском обществе в начале XX века, а также проникновение нового уклада жизни под влиянием царской России создали почву для глубоких преобразований в сознании и мышлении людей. Этот процесс ускорил социализацию лирической поэзии.

Автор характеризует 1960-1980-е годы как новый этап в истории узбекского искусства, обосновывая, что подъём живописи, театра, кино, музыки и других областей оказал непосредственное влияние на поэзию. Выделяются две основные причины распространения темы искусства в поэзии: первая – достижение различными областями искусства пика своего развития в тот период; вторая – синтез поэзии с другими видами искусства.

В статье анализируется яркий пример синтеза живописи и поэзии на основе стихотворения Хуршида Даврона «Искусство». Через это стихотворение автор демонстрирует художественную универсальность личности поэта и его мастерство тонкого выражения социальной боли посредством искусства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Поэзия, тема искусства, литературное мышление, синтез, живопись, лирика, социализация, изобразительное искусство, театр, кино,

музыка, художественный образ, лирический субъект, творец, обновление, XX век, 70–80-е годы.

ANNOTATION: This article analyzes the popularization of the “art” theme in Uzbek poetry of the 1970s-1980s and the renewal of literary thought during this period. The author consistently examines the factors that contributed to the widespread incorporation of the art theme in poetry.

As emphasized in the article, the political and social changes that occurred in Turkestan society at the beginning of the 20th century, along with the introduction of a new way of life under the influence of Tsarist Russia, laid the groundwork for profound transformations in the consciousness and thinking of the people. This process accelerated the socialization of lyric poetry.

The author characterizes the 1960s-1980s as a new stage in the history of Uzbek art, substantiating that the rise of painting, theater, cinema, music, and other fields had a direct influence on poetry. Two main reasons are identified for the popularization of the art theme in poetry: first, the various fields of art reaching the peak of their development during that period; and second, the synthesis of poetry with other art forms.

The article analyzes a vivid example of the synthesis of painting and poetry based on Khurshid Davron’s poem “Art.” Through this poem, the author demonstrates the poet’s personal artistic universality and his mastery of subtly expressing social grief through the medium of art.

KEYWORDS: Poetry, the theme of art, literary thinking, synthesis, painting, lyric poetry, socialization, visual arts, theatre, cinema, music, artistic image, lyrical subject, creator, renewal, the 20th century, the 1970s–1980s.

KIRISH. XX asrga kelib adabiyot, xususan she’riyat tobora ijtimoiy tus ola boshladi. Asrning dastlabki yillaridanoq mamlakatda siyosiy va ijtimoiy hayotda chuqur o’zgarishlar ro’y bergan edi. D.Quronov bu masalada quyidagicha fikr bildiradi: “Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining o’zgargani, insonning ijtimoiylashganida. Sodda qilib aytsak, Turkiston kishisi jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sababi – xullas siyosat haqida bosh qatiradigan bo’ldi”. Chor Rossiyasining yurtimizni bosib olishi, yangi turmush tarzining kirib kelishi va madaniyatlarning o’zaro qorishib ketishi insonlar ongida hamda tafakkurida katta o’zgarishlarga olib keldi. “O’zga hayot tarzining kirib kelishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi jamiyatda shaxs maqomining o’zgarishiga, inson fitratidagi ijtimoiylik ibtidosining kuchayishi va shuning natijasi o’laroq lirikaning ijtimoiylashuviga olib kelgan” edi. Lirikaning ijtimoiy yo’nalish kasb etishida boshqa san’at sohalarining tutgan o’rni ham beqiyosdir. Zero, bu davrga kelib san’atning turli tarmoqlari jadal rivojlanib, jamiyat hayotidagi ahamiyati tobora ortib bordi.

XX asrning ilk yillarida teatr, rassomchilik, kino, fotografiya singari sohalarining maydonga kelishi o’sha paytgacha mavjud bo’lgan san’at turlarining ifodaviy va shakliy xususiyatlarini yangiladi. Buning natijasida inson dunyoqarashida ham sezilarli siljishlar yuz berdi. Ana shunday sharoitda yangi davr she’riyati oldiga ifodaviy-shakliy jihatdan yangilanib ulgurgan tasviriy san’at, shuningdek keng omma orasida mashhurlik qozonib borayotgan teatr va kino san’atlariga xos ifoda usullarini egallash, zamonaviy o’quvchining badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalar qo’yildi. 70-80-yillar she’riyatida san’at mavzusining keng tarqalishiga esa aynan mana shu omillarning izchil rivojlanib borishi turtki bo’ldi. 60-80-yillar o’zbek san’ati tarixida yangi bir sahifa bo’lib, bu davr milliy san’at xususiyatlarining mustahkamlanishi, o’ziga xos milliy uslubni qidirish bilan bir

qatorda shaxsiy his-tuyg'ularni erkin ifodalashga intilish bilan ajralib turadi. Bu yillarga kelib san'atning qamrovi misli ko'rilmagan darajada kengaydi. Rassomchilik, teatr, kino, fotografiya, musiqa va boshqa san'at sohalari o'zining eng yuksak nuqtasiga ko'tarildi, desak xato bo'lmaydi. Bu holat o'z navbatida uslubiy rang-baranglikni oshirib, tasviriy va ifodaviy vositalar imkoniyatlarining kengayishiga yo'l ochdi. Ijodkorlar dunyoqarashida ham tubdan yangilanishlar kuzatildi. Endi ijodkor davr nafasi bilan hamnafas bo'lib, ijtimoiy hayotdagi yutuq va kamchiliklarni, jamiyat a'zolarining ichki kechinmalarini chuqur his etgan, boshqa san'at sohalari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda qalamga sariq urdi. Bu esa she'riyatning keng miqyosda rivojlanishiga kuchli impuls berdi. Xususan, rassomlar o'z ijodida turli ramziy obrazlar, shartli belgilar, rang, shakl, chiziq va faktura imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanishga harakat qildilar. Bunday izlanishlarning paydo bo'lishiga 50-60-yillar orasida san'at maydoniga kirib kelgan, Moskva, Peterburg va Toshkentdagi nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil ko'rgan ijodkorlar sabab bo'ldi. Ular o'z tadqiqotlari va amaliy izlanishlari orqali rassomchilikni yangi-yangi yo'nalishlarga olib kirdilar. N.Abdullayev bu borada shunday yozadi: "Bu yillarda o'zbek san'atining yangi tur va janrlari rivojlandi. Jumladan, vitraj, mozaika, gobelen, sgraffito san'ati rassomlarni o'ziga tortdi". Mazkur izlanishlar samarasi she'riyatda ham o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari, bu davrda musiqa san'atida ham jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar yuz berdi. "O'zbekiston kompozitorlarining asarlari respublika chegarasidan tashqarida ham tanila boshladi. Jumladan: Ikrom Akbarovning "Shoir qalbi" poemasi va skripka uchun konserti, M.Burhanovning xor a'kapellari, G.Mushelning fortepiano konsertlari va organ asarlari, A.Kozlovskiyning simfonik poemalari, S.Yudakovning "Maysaraning ishi" hamda M.Ashrafiyning "Dilorom" operalari" bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bir so'z bilan aytganda, musiqa san'ati o'zidan avvalgi davrlarga nisbatan taraqqiyotining eng cho'qqisiga yetib oldi. Xususan, mazkur davrda O'zbekistonda Hindiston, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Finlandiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Mo'g'uliston, Gruziya, Ozarbayjon, Estoniya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarning milliy musiqa san'atiga bag'ishlangan haftaliklar o'tkazildi. Shu bilan birga O'zbekiston san'at vakillari ham xalqaro anjuman, simpozium va festivallarda faol ishtirok etdilar. "XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardan biridir. 1914-yil Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzugulik darajadagi professional teatrga aylandi". O'sha davrdan to 70-80-yillargacha teatr sohasi uzoq va sharaflı yo'lni bosib o'tdi. Boy badiiy an'analarga tayangan o'zbek teatri jahon sahna san'atining ilg'or tajribalarini o'zlashtirish orqali qisqa muddatda yetuk professional teatr sifatida e'tirof etildi.

70-80-yillarda yaratilgan ko'plab asarlar bugun ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

O'sha davrda O'zbekiston teatr jamoalari tomonidan Oybekning "Qutlug'qon", Uyg'unning "Qotil", A.Qahhorning "Ayajonlarim", S.Ahmadning "Kelinlar qo'zg'aloni", O'.Umarbekovning "Shoshma quyosh", I.Sultonning "Noma'lum kishi", S.Azimovning "Qonli sarob" singari asarlar sahnaga olib chiqildi. Bundan tashqari, o'zbek akademik teatri jahon adabiyotining durdonalari – V.Shekspirning "Qirol Lir" va "Hamlet" pyesalarini ham tomoshabinlar hukmiga havola etdi. Teatr sohasida kuzatilgan bunday yuksalish keng tomoshabin ommasini o'ziga maftun etdi. Shubhasiz, teatr san'atidagi bu ulkan ko'tarilish o'zbek she'riyatiga ham ta'sir qilmay qolmadi. Ushbu ta'sirning yorqin namunalariga esa quyida batafsil to'xtalamiz.

Qamariddin Usmonov shunday yozadi: "O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Hamza nomidagi o'zbek drama teatri jamoasi Shekspirning "Otello", va

“Yuli Sezar”, Uygʻunning “Navbahor”, Abdulla Qahhorning “Shohi soʻzana”, N. Hikmatning “Bir sevgi afsonasi”, R. Tagorning “Gang daryosining qizi”, Uygʻun va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, M. Shayxzodaning “Mirzo Ulugʻbek” asarlarini sahnalashtirdi”. Yuqorida keltirib oʻtgan sanʼat sohalari singari teatr ham oʻsha davrlarda ancha yuksalgan edi. Bu yuksalish teatrning boshqa sanʼat sohalari bilan sintezlashuviga yoʻl ochdi. Shu yillarda kino sohasi ham oʻzbek madaniy hayotining muhim qismiga aylangan edi. “Respublikada isteʼdodli kinematografchi kadrlar, rejissiyorlar, operatorlar, ssenariychilar yetishib chiqdi. K. Yormatov, M. Qayumov, Y. Azamov, Sh. Abbosov, L. Fayziyev, Z. Sobitov kabi kino arboblarning nomi respublikdan tashqarida ham mashhur boʻldi”. Urushdan keyingi yillardan to 1985-yilgacha Oʻzbekiston kino sanʼatining yuksalish yillari boʻldi. K. Yormatov tomonidan 1970-yili “Qora konsulning halokati” filmi yaratildi. 70- yillarda oʻzbek kino sanʼatiga yosh talantli rejissiyorlar, aktyorlar kirib keldi. Sh. Abbosovning “Toshkent non shahri”(1970), “Abu Rayhon Beruniy”(1974), A. Hamroyevning “Shiddat” (1971), R. Botirovning “Seni kutamiz yigit” (1972), E. Eshmuhammedovning “Umid qushi” (1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, izlanishlari tasvirlangan. Rejissyor M. Qayumovning “Mirzachoʻl” (1975), “Paranji” (1977) yaratigʻlari Butun ittifoq va jahon kinofestivallarida tomoshabinlarga manzur boʻldi va yuksak mukofotga sazovar boʻldi. Ushbu sanʼat sohalri qatorida sirk, memorchilik, raqs ansambillari sohalari ham ancha yuksalgan edi. Sanʼat sohalarining bu darajada yuksalishi sheʼriyatda yangi- yangi mavzularning qalamga olinishiga sabab boʻldi. Yuqorida sanab oʻtilgan sanʼat sohalarining rivoji sheʼriyatga sanʼat mavzusining ommalashishidagi birinchi sabab edi.

Ikkinchi sabab: sheʼriyat boshqa sanʼat sohalari bilan sintezlashdi. Har bir ijodkor boshqa sanʼat sohalarinida anglashga, bu orqali zamon ruhiga, kayfiyatiga, dunyoqarashiga mos keladigan sheʼrlar yozishga bel bogʻladi. Har qanday sanʼat turi oʻzining spetsifik xususiyati bilan boshqa sanʼat turlaridan ajralib turadi va shu xususiyati bilan yashaydi. Shu bilan birga sanʼat turlarining oʻzaro aloqasi ularning imkoniyatlarini oshirib boradi. Soʻzning ekspressiv imkoniyatlarining egiluvchanligi va cheksizligi tufayli adabiyot har qanday sanʼatning badiiy mazmuni elementlarini oʻzlashtirishga qodir. Gegel bu soʻzni toʻgʻridan- toʻgʻri ruhga tegishli boʻlgan eng plastik material deb ataydi. Haqiqatni badiiy obrazlar shaklida aks ettirish inson tabiatiga xosdir. Ushbu tushuncha turli xil shakllarni oladi va madaniyatshunoslar bir necha yuz turdagi sanʼatni ajratib turadilar. Badiiy effekttni kuchaytirish uchun ularning oʻzaro taʼsiri va oʻzaro taʼsir jarayoni obyektivdir. XX asrga kelib sheʼriyat va boshqa sanʼat turlari oʻrtasida oʻzaro sintezlashuv kuchaya bordi. Bu jarayon oʻz-oʻzidan kelib chiqmadi, albatta. “Badiiy madaniyat, – taʼkidlaydi Yu. Borev, – verbal asosda quriladi: adabiyot barcha sanʼat turlariga aniq qiluvchi (tizmlashtiruvchi) taʼsir koʻrsatadi, uning kontekstida boshqa sanʼatlarda yaratilgan badiiy obrazlar qabul qilinadi”. Poetik janr va shakllardagi izlanishlar qanchalik koʻp boʻlsa, badiiy- estetik maʼnoni ifodalash usullari, yoʻllari shunchalik koʻpligini koʻrsatadi. Bu izlanishlar ortida, albatta, boshqa sanʼat sohalari bilan aloqa (sintezlashuvi), jamiyatdagi ijtimoylashuvning kuchayishi sheʼriyatda sanʼat mavzusining keng koʻlamda qalamga olinishiga yoʻl ochgan ikkinchi omil deb bilamiz.

Sanʼat sohalarining oʻzaro sintezlashuvi sanʼat sohasining yanada noziklashuviga, uning shu kungacha koʻrilmagan qirralarinida koʻrishga imkon beradi. Sheʼriyatning rassomchilik bilan teatr bilan va h.k. sohalar bilan sintezlashuvidan yaralgan goʻzal sheʼrlarning sanʼat mavzusida yozilishi buning isboti boʻladi. Masalan, Xurshid Davronning “Sanʼat” nomli sheʼrini olsak, ushbu sheʼrida sheʼriyatda sanʼat mavzusini yozish bilan birga rassomchilik bilan sintezlashuv hodisasini ham koʻrishimiz mumkin.

Xona sovuq. Xontaxta uzra
Bo‘m- bo‘sh shisha. Unda oy aksi
Va burchakda turibdi muzlab
Oq bo‘zdagi g‘amgin qiz rasmi.

She‘rning birinchi misrasidanoq kitobxon ko‘z oldida sovuq xonaning qaysidir qismida xontaxta (kitobxon o‘z tasvvuriga ko‘ra joylashtiradi), uning ustida ichilib bo‘shagan shishaga tushayotgan oy aksi yaltiraydi. Shoir shu yerda tomoshabinlarning nigohini burchakda muzlab turgan (ya‘ni xona juda sovu) oq bo‘zga chizilgan g‘amgin qiz rasmiga qaratadi. Kitobxon tasavurida nogahon chizilayotgan suratni g‘amga chayilgan bo‘yoqlarda chizilgandagidek hisni tuyadi.

Derazada muzdan qatqaloq,
Rassom yig‘lar, ko‘zlari xira.
Uni qiynar olis xotira –
Mo‘yqalamda yashagan titroq.

Yangi banddan shoir “tomoshabin” nigohini xonaning boshqa qismiga sovuqdan derazada muzlab qolgan qatqaloqqa qaratadi va u yerda “tomoshabin” yig‘lab ko‘zlari hira tortgan, chuqur qayg‘u va o‘ylar girdobidagi rassomni ko‘radi, butun umrini, hislari-yu, tug‘yonlarini mo‘yqalam bilan bo‘lishganini his qiladi.

Taqdir kechar shunday hamisha –
Xona sovuq, qotib qolgudek,
Qotgan nonu bo‘shagan shisha
Va dunyoga kelgan mangulik.

She‘rning yuqoridagi ikki bandida obyektivlashtirilgan tasvir ustivor, lirik subyektni esa ko‘rmadik. Uchinchi bandaga kelib esa lirik subyekt ichki kechinmalarini ochiq ifodalaydi. Shu yerda kitobxon uni qiynayotgan olis xotiralar nima ekanligini anglaydi. O‘limidan so‘ng sud qilingan, millati uchun kurashib horlig-u faqirlik, to‘hmat-u sotqinliklardan aziyat chekkan marifatchilarimiz, umri qamoqlarda chirigan shoir-u ijodkorlarimizni eslaydi. Ushbu she‘rda rangtasvir va she‘riyatning sintezi yaqqol ko‘rinadi. Ammo bu yerdagi san‘at mavzusi va obyektiv tasvir bir vosita holos. Lirik subyekt uchinchi bandda o‘z xulosasini aytadi, bu tasvir ortidagi uni qiynayotgan asosiy og‘riq qatag‘onlik yillaridan beri davom etib kelayotgan zo‘rluk edi nazarimizda. She‘r 1974- yili yozilgan. Ijodkorlarga endigina erkinlikning jonsiz ekinlari yela boshlagan palla edi. Ammo shoir chin erkinlik istaydi. Bir rassom qismatida boshqa san‘at vakillarining qay qismat yo‘lida kelganligi va qay qismat yo‘lidan borayotganini chuqur dard bilan ifodalaydi. She‘rning mukammaligida ijodkor shaxsning badiiy universalligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA. A.Blok “yozuvchini rasmdan saboq olishga undaydi, yozuvchi uchun rassomning psixologiyasi va dunyoqarashini, uning dunyoni idrok etishini juda muhim deb biladi, garchi fikrlar, his-tuyg‘ular va taassurotlarni yetkazish vositalari har xil bo‘lsa ham”. X. Davron yoshligidan tasviriy san‘at bilan shug‘illanadi. Uning teran nigohida tabiatni, borliqni musavvirona ko‘ra olish qobilyati yuksak. Ayni shuning uchun ham rangtasvir va she‘riyatning go‘zal sintezini uning she‘rlarida juda ko‘p ko‘ramiz. Ushbu ikki san‘atning ortiga ulkan ijtmoy dardni mahorat bilan yuklaganini yuqorida guvohi bo‘ldik. Shoir rassomchilikda anchagina qobilyatli edi va keyinchalik ham bu san‘at bilan rassomlar bilan yaqinlikni yo‘qotmadi. Ijodkor avvalo jamiyat bilan hamnafas yashaydi. Biz asos qilib olgan ijodkorlarimiz she‘rlarida ham xalqning dardi, quvonchi, his- kechinmalari o‘z chizgilarini topgan. Ijodkor san‘at mavzusiga o‘zidan oldingi salaflarining dard- qayg‘ularini, kechinmalarini his qilgan holda murojaat qiladi. Bu esa san‘at mavzusining ko‘lamining

kengayishiga yana bir omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu omilnida yuqorida misol qilgan she‘rimizda ham ko‘rdik nazarimizda.

Adabiyotlar

1. Quronov D. Mtolaa va idrok mashqlari. - T.: Akademnashr, 2013.- B. 202.
2. Hamdam U. Yangi o‘zbek she‘riyati. - T.: Adib, 2012.-B.64.
3. Abdullayev N. O‘zbekiston san‘ati tarixi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiati, 2007.
4. История узбекской советской музыки. – Т.:1973, 5-б.
5. Tursinboyev S. Teatr tarixi. – T.: O‘MKHTM, “Bilim”, 2005.- B.3.
6. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi-- T.: Sharq 2003.-b 223-224
7. Боров Ю.Б. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988.—496 с.
8. Davron X. Bolalikning ovozi.- T.: Adabiyot va san‘at, 1986.- B.9.
9. Золотарева Л.Р. Взаимодействие изобразительного искусства и литературы. Вестник КарГУ. – Караганда, 2010.